




2021- yil yanvar-mart

## Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

### Dastlabki ma'lumotlar




2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi

- 2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **41,1 %** ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **14,0** birlikni tashkil qildi.
- 2021- yilning yanvar-martida **1271** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **137,5** foizga kup.



### 2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 356 ta, sanoatda 210 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 422 ta, qurilishda 79 ta, yashash va ovqatlanishda 57 ta, tashish va saqlashda 27 ta tashkil etilgan.

## Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	15188	18835	3647
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	924	1271	347
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	42,2	41,2	-1,0
Sanoat	%	14,6	19,5	4,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	96,4	95,8	-0,6
Investitsiya	%	62,0	58,7	-3,3
Qurilish	%	89,7	86,6	-3,1
Chakana savdo	%	89,4	93,1	3,7
Xizmatlar	%	51,7	51,6	-0,1
Yuk tashish	%	80,5	86,5	6,0
Yuk aylanmasi	%	88,2	87,7	-0,5
Yo'lovchi tashish	%	97,4	97,5	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,6	97,8	0,2
Eksport	%	20,1	10,3	-9,8
Import	%	70,6	56,7	-13,9



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

**YaHM**  
41,2%

**Savdo**  
93,1%

**Sanoat**  
14,6%

**Qurilish**  
86,6%

**Investitsiya**  
58,7%

**Export**  
10,3%

**Xizmatlar**  
51,6%


**Import**  
56,7%

**Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	farqi (+;-)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	924	1271	347
Nukus sh.	246	318	72
tumanlar:			
Amudaryo	55	103	48
Beruniy	64	117	53
Bo'zatov	20	46	26
Qorao'zak	18	23	5
Kegeyli	26	50	24
Qo'ng'irot	42	53	11
Qonliko'l	18	35	17
Mo'ynoq	41	32	-9
Nukus	62	79	17
Taxiatosh	30	37	7
Taxtako'pir	12	15	3
To'rtko'l	107	111	4
Xo'jayli	47	77	30
Chimboy	35	53	18
Shumanay	28	33	5
Ellikqal'a	73	89	16



**2021- yil yanvar-martda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, % da**



2021- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Nukus shahri – 25,0 %, Beruniy – 9,2 %, To'rtko'l – 8,7 %, Amudaryo – 8,1 %, Ellikqal'a – 7,0 %, Nukus tumani - 6,2 %, Xo'jayli – 6,1 %, Qo'ngirot – 4,2 %, hissalariga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- y. yanvar-mart	2021- y. yanvar-mart	farq. (+;-)
<b>Jami</b>	<b>924</b>	<b>1271</b>	<b>347</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	153	422	269
<b>Sanoat</b>	187	210	23
<b>Qurilish</b>	98	79	-19
<b>Savdo</b>	304	356	52
<b>Tashish va saqlash</b>	31	27	-4
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	56	57	1
<b>Axborot va aloqa</b>	17	24	7
<b>Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	19	12	-7
<b>Boshqa faoliyat turlari</b>	59	84	25

**Ma'lumot uchun:** 2021– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Nukus sh.	246	318	72
Beruniy tumani	64	117	53
To'rtko'l tumani	107	111	4
Amudaryo tumani	55	103	48
Ellikqal'a tumani	73	89	16
Nukus tumani	62	79	17
Xo'jayli tumani	47	77	30
Qo'ngirot tumani	42	53	11
Chimboy tumani	35	53	18
Kegeyli tumani	26	50	24

2021- yilning yanvar–martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Respublika bo'yicha Nukus sh. – 318 tani tashkil etdi.



**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**






2021- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan, **14,0** birlikni tashkil etdi.



**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra\***




2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus tumani 24,9 birlik, Bo'zatov 19,5 birlik, Qonliko'l 19,2 birlik, Mo'ynoq 18,6 birlik, Qorao'zak 18,2 birlik, Nukus shahri 17,2 birlik, To'rtko'l 16,5 birlik, tashkil etgan. Taxiotosh esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 8,9 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2021– yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2021 yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \*



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus tumanida 24,9 birlik, Bo'zatov tumanida 19,5 birlik, Qonliko'l tumanida 19,2 birlik, Mo'ynoq tumanida 18,6 birlik, Qorao'zak tumanida 18,2 birlik, Nukus shahrida 17,2 birlik, To'rtko'l tumanida 16,5 birlik, Shumanay tumanida 14,5 birlik, Taxtako'pir tumanida esa 14,2 birlikni tashkil etdi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

- Nukus tumani
- 24,9 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

- Ellikqal'a tumani
- 13,0 birlik.

Eng past ko'rsatkich

- Taxiatoş tumani
- 8,9 birlik.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-mart holatiga ko'ra, % da

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **41,2** % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-martida **42,2** %).

43,0%

2019- y.

42,2%


2020- y.

41,2%

2021- y.



**Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)**



**2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>14,6</b>	<b>86,6</b>	<b>51,6</b>	<b>58,7</b>
Nukus sh. tumanlar:	5,3	87,9	34,8	71,5
Amudaryo	30,4	100,0	74,8	71,0
Beruniy	26,6	100,0	75,6	68,4
Bo'zatov	6,4	99,9	64,4	85,6
Qorao'zak	26,3	99,4	77,9	43,3
Kegeyli	87,0	93,6	73,0	79,8
Qo'ng'iro't	25,2	41,5	33,2	38,0
Qonliko'l	7,1	99,5	74,4	91,0
Mo'ynoq	100,0	98,2	75,8	29,5
Nukus	15,9	99,8	67,9	81,7
Taxiatosh	9,8	55,3	59,9	47,0
Taxtako'pir	26,0	100,0	78,4	51,2
To'rtko'l	42,6	96,1	70,7	35,1
Xo'jayli	75,4	99,5	78,9	54,7
Chimboy	25,0	100,0	70,1	83,2
Shumanay	100,0	99,8	73,5	98,2
Ellikqal'a	34,4	98,0	74,5	47,8

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Shumanay (100,0 %),  
Mo'ynoq (100,0 %),  
Kegeyli (87,0 %),  
Xo'jayli (75,4 %),  
To'rtko'l (42,6 %),  
Ellikqal'a (34,4 %), va  
Amudaryo (30,4 %) tumanlarida.


**Qurilishda-**

Taxtako'pir (100,0 %),  
Amudaryo (100,0 %),  
Beruniy (100,0 %),  
Chimboy (100,0 %),  
Bo'zatov (99,9 %),  
Nukus rayon (99,8 %),  
va Shumanay (99,8 %) tumanlarida.


**Xizmatlarda-**

Xo'jayli (78,9 %),  
Taxtako'pir (78,4 %),  
Qorao'zak (77,9 %),  
Mo'ynoq (75,8 %),  
Beruniy (75,6 %),  
Amudaryo (74,8 %), va  
Ellikqal'a (74,5 %) tumanlarida.

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 10,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 10,3 % ini tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2021- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'zatov, Nukus tumani, Shumanay, Taxiato'sh, Taxtako'pir, va Xo'jayli, Mo'ynoq, – 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Kegeyli – 0,0 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 27,3 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 56,7 % ini tashkil etdi.



**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2021- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Amudaryo, Bo'zatov, Nukus tumani, Shumanay Taxiatosh, Xo'jayli, – 100,0 %, Eng past ko'rsatkich Qorao'zak tumanida – 5,0 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subektlari tomonidan 606,1 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2021- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (129,9 mlrd. so'm), Xo'jayli (86,0 mlrd. so'm), Kegeyli (66,1 mlrd. so'm), Taxiatosh (52,6 mlrd. so'm) va To'rtko'l (43,3 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Bo'zatov tumanida (3,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 14,6 foizni tashkil etdi.



**2021- yil yanvar-mart holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Mo'ynoq va Shumanay (100,0 %), Kegeyli (87,0 %), Xo'jayli (75,4 %), To'rtko'l (42,6 %), Ellikqal'a (34,4 %), (99,2 %), Amudaryo (30,4 %), Beruniy (26,6 %), Qorao'zak (26,3 %) va Taxtako'pir (26,0 %), tumanlari tashkil etdi. Nukus shahrida (5,3 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 1424,3 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 93,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 100,1 foizni tashkil qildi.



**2021- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (323,0 mlrd. so'm), Beruniy (152,4 mlrd. so'm), To'rtko'l (138,3 mlrd. so'm), Xo'jayli (134,4 mlrd. so'm), Amudaryo (106,2 mlrd. so'm), va Qo'ngirot (104,0 mlrd. so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 742,6 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 86,6 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 98,8 foizni tashkil qildi.




**2021- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Nukus shahri (274,4 mlrd. so'm), To'rtko'l (61,1 mlrd. so'm), Mo'ynoq (53,2 mlrd. so'm), Nukus tumani (36,7 mlrd.so'm), Ellikqal'a (36,0 mlrd. so'm), Qo'ngirot (35,8 mlrd. so'm), Amudaryo (35,7 mlrd. so'm), hamda Beruniy (34,5 mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.


2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 933,2 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 51,6 % ini tashkil qildi 2020- yilning yanvar-martiga nisbatan 106,7 % tashkil qildi.



**2021- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**





Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Nukus shahri (281,9 mlrd. so'm), To'rtko'l (100,5 mlrd. so'm), Beruniy (84,9 mlrd. so'm), Amudaryo (74,3 mlrd. so'm), Qo'ngirot (66,8 mlrd. so'm), Xo'jayli (64,7 mlrd. so'm) va Ellikqal'a (64,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 86,5 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 87,7 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 foizni tashkil qildi.



2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,5 foizni tashkil etib, bu esa 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 102,0 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,8 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 101,4 foizga tashkil qildi.






2021- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **848** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 326 (38,4 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 434 (51,2%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 88 (10,4 %) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.



**2021- yil I chorak bo'yicha savolnomada ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha savolnomada ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 12,0 % (102 ta), sanoatda – 14,3 % (121 ta), qurilishda – 10,3 % (87 ta) , savdoda – 37,4 % (317 ta), xizmatlar sohasida – 26,0 % (221 ta) ni tashkil etdi.

\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.




**2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (227 ta), To'rtko'l (84 ta), Amudaryo (76 ta), Qo'ngirot (61 ta), Beruniy (59 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.




**2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (227 ta), To'rtko'l (84 ta), Amudarya (76 ta), Qo'ngirot (61 ta), Beruniy (59 ta) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan savolnoma natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb sanoatda 43,8 ni, savdo sohasida 42,9 ni, tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning I choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, xizmatlar sohasida 59,3 % ni, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 54,9 % ni, tashkil etdi.



**2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

**Sanoat**

**Qurilish**

**Savdo**


**Xizmatlar**



■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 69,6 % ni, sanoatda 66,1 % ni, qurilishda 59,8 ni % ni, tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 42,1 % ni, savda sohasida 37,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 30,4 % ni, qurilish sohasida 27,6 % ni tashkil etdi.



**2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**

